IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AHOLI BANDILIGINI TAMINLASHNING UNUMLI QULAY IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Ergashova Hilola Farhodovna
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. Maqolada aholi bandligi tushunchasi iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilingan. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda bandlik va mehnat bozorini tartibga solishning modellari o‘rganib chiqilgan. Mazkur davlatlar tajribalaridan mamlakatimizda ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko‘paytirish bo‘yicha foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.
Kalit so`zlar: aholi bandligi, ishsizlik, mehnat bozori, bandlik dasturlari, bandlikni tartibga solish modellari, xorijiy tajriba.

Bugungi kunda aholining ish bilan bandligini ta’minlash muammosi jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim makroiqtisodiy xususiyatlaridan biri bo‘lib iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoev tashabbusi bilan qabul qilingan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “aholi bandligini oshirish maqsadida aholining real pul daromadlari va xarid qobiliyatini oshirish, kam ta’minlangan oilalar sonini va daromadlar bo‘yicha farqlanish darajasini yanada kamaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish” asosiy vazifa sifatida belgilangan [3].

Prezidentimiz tomonidan 2020 yilning 20 oktabr kuni imzolangan “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi qonun ushbu dolzarb muammolar yechimi yo‘lida muhim dasturilamal bo‘ldi.

Mazkur qonun sohadagi mavjud muammolarning huquqiy yechimiga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Qonun 19 bob, 621 ta moddadan iborat. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri amaliyotda ishlaydigan xususiyatga ega bo‘lib, amaldagi 3 ta qonun, Prezidentimizning 12 ta farmon va qarori hamda Vazirlar Mahkamasi tomonidan bandlik va mehnat bozorini tartibga solish, tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalarga oid qabul qilingan 40 dan ziyod me’yoriy hujjatda ko‘zda tutilgan huquqiy normalarni, tizimdagi so‘nggi islohotlarni, yangi moliyaviy mexanizmlarni o‘zida ifoda etgan.

Qonunda sohaga kompleks yondashish maqsadida barcha davlat organlari va tashkilotlarning vazifalari belgilab berildi. Jumladan, birinchi marotaba Vazirlar Mahkamasi, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, ishga joylashtirish bo‘yicha agentliklar hamda autstaffing xizmatlarini ko‘rsatuvchi ish beruvchilarning sohadagi vazifalari belgilandi. Ishga joylashtirish bo‘yicha agentlar aholining ishga joylashishiga ko‘maklashishga doir ishlarni mahalliy mehnat organlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida bajaruvchi jismoniy shaxslardir. Ularga Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda hamda miqdorlarda rag‘batlantiruvchi xususiyatga ega to‘lovlar berish ko‘zda tutilgan.

Iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar jarayonida aholi bandligini ta’minlash muammolarini tadqiq etishning dolzarbligi birinchi navbatda, mazkur tushunchaning evolyusion qarashlari va konseptual yondashuvlarini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Mazkur tushunchaning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari mazmuni turlituman shakllar vositasida ifodalanadi.

Tadqiqotchilar iqtisodiy o‘sish sur’ati, bandlik va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikka asoslangan holda sanoati rivojlangan mamlakatlarda aholi bandligini rag‘batlantirish siyosatida bir qancha modellarini ajratishadi. Jumladan, tadqiqotchilar bandlik

va mehnat bozorini tartibga solishning beshta: amerika modeli(AQSh), skandinaviya modeli (Shvesiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya), anglo-saksoniya modeli (Buyuk Britaniya, Kanada, Irlandiya), kontinental yoki nemis modeli (Germaniya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shveysariya, qisman Fransiya) va yapon modellarini ajratishadi. Ammo ayrim tadqiqotchilar mamlakatlarni boshqacha guruhlashadi, masalan, amerika modelini bo‘lak qilib ajratmasdan, uni anglo-saksoniya modeliga qo‘shib yuborishadi[9]. Ayrim tadqiqotchilar esa mamlakatlarni uchta modelga(amerika, skandinaviya, yevropa) ajratib o‘rganishadi[7]. Quyida biz ushbu modellar bilan tanishib chiqamiz.

Amerika modeli asosini ijtimoiy-mehnat munosabatlarining subsidiya ko‘rinishi, xodimning shaxsiy yutuqqa erishishi va o‘zini namoyon qilishi tashkil etadi. Ushbu model mehnat bozori markazlashmaganligi hamda bandlik va ijtimoiy ta’minotning qonuniyligi; ish beruvchi tomonidan yollanma ishchiga nisbatan nazorat yuqori darajadaligi; ishchilarning yuqori darajadagi jug‘rofiy va kasbiy mobilligi; nisbatan yuqori darajadagi ishsizlik bilan xarakterlanadi. Kasbiy karera eng avvalo ish joyi o‘zgarishi bilan bog‘liq, shunga mos ravishda ushbu model qolganlariga nisbatan yuqori darajadagi mobilligi bilan farq qiladi. Ish haqi miqdori ish ixtisosligi va murakkabligiga asosan belgilanadi, xizmat pog‘onalarida siljish, odatda, kasbiy-malakaviy profilini kengaytirishga bog‘liq emas. Kasbiy yo‘nalish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Universitet va kollejlar qoshida kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maxsus markazlar va xususiy agentliklar tashkil etilgan. AQSh mehnat vazirligi qoshida 1200 dan ortiq davlat hisobidan faoliyat yurituvchi kasbga yo‘naltirish va kasb tanlash markazlari ish olib borib, har yili ular orqali 1 milliondan ortiq yoshlar o‘tishadi. Natijada mutaxassis tayyorlash xarajatlari 30-40 %ga kamayadi, kasbiy tanlov testlariga sarflangan bir dollar ming dollarlik iqtisodiy samaradorlikni ta’minlaydi [4].

Qonun qonunchilikda yangi normalarni aks ettirish, shuningdek ma’muriy islohotlar doirasida bir qator respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini qayta tashkil etish maqsadida qabul qilingan.

Qonunga ish qidirayotgan shaxslar tomonidan mehnat organlariga ortiqcha hujjatlar taqdim etilishiga yo‘l qo‘ymaslik, bandlikni rag‘batlantirish va tadbirkorlikka jalb qilish uchun subsidiyalar berish mexanizmini takomillashtirishni nazarda tutuvchi o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilmoqda.

Ish beruvchilar tomonidan mahalliy mehnat organlariga bo‘sh ish o‘rinlari mavjudligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni, xodimlarni bo‘shatish to‘g‘risidagi axborotni har oyda elektron tarzda taqdim etish shartlari takomillashtirilmoqda.

Aholi bandligi sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- Ish o‘rinlari tashkil etilishini rag‘batlantirish va aholi bandligiga ko‘maklashish, shu jumladan ish o‘rinlarini tashkil etishga doir davlat buyurtmasini hamda ish qidirayotgan shaxslarni va ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlashga, qayta tayyorlashga hamda ularning malakasini oshirishga doir davlat buyurtmasini shakllantirish orqali ko‘maklashish;

- ishsiz shaxslarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish choralarini ko‘rish, aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirishga ko‘maklashish;

- yoshlarni, ayniqsa qishloq joylardagi yoshlarni, umumta’lim va kasb-hunar maktablari, kasb-hunar kollejlari, texnikumlar, akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirishni ta’minlash bo‘yicha choralarni amalga oshirish;

- aholi bandligi sohasida ayollar va erkaklar uchun teng huquqlar hamda imkoniyatlarni ta’minlash;

- ishga joylashtirish jarayonlariga ilg‘or axborot texnologiyalarini joriy etish, aholining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha xizmatlar bozorida zamonaviy infratuzilmani va raqobat muhitini yaratish;

- O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ishga joylashishida ko‘maklashish, O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyatini amalga oshirish davrida ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilinishini ta’minlash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T. “O‘zbekiston” 2018. 76 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi//O‘zbekiston Respublikasi Axborotnomasi, 2014 y.
3. «Odam savdosiga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘RQ-633-son 17.08.2020 y.
4. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonuni O‘RQ-419-son 03.01.2017 y.
5. O‘zbekiston Respublikasining “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-562-son 02.09.2019 y.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni O‘RQ-642-son 20.10.2020 y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida majburiy mehnatga barham berishga doir qo‘shimcha-chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 349-sonli qarori.

WORDLY KNOWLEDGE